



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 11 | pp. 159-165 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### GLOBAL ENERGETIKA BOZORIDA O'ZBEKISTON NEFT-GAZ SANOATINING STRATEGIK O'RNI VA AHAMIYATI



Salomova Sarvinoz Salimovna  
TDTU dotsenti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada global energetika tizimida kechayotgan geoiqtisodiy o'zgarishlar fonida O'zbekistonning neft-gaz sanoati va uning xalqaro bozorlaridagi strategik o'rni chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda O'zbekistonning tabiiy gaz zaxiralari, qazib olish dinamikasi, eksport geografiyasi hamda tranzit imkoniyatlari xalqaro statistik ma'lumotlar asosida baholanib, mamlakatning energetik-geostrategik ustunliklari ilmiy asosda asoslab beriladi. Xususan, O'zbekiston hududidan o'tuvchi Sharq (Xitoy yo'nalishi), G'arb (Kaspiy orqali Yevropa bozorlari) va Janub (Afg'oniston orqali Pokiston–Hindiston bozorlariga chiqish) energetik yo'laklarining iqtisodiy samaradorligi, geosiyosiy ahamiyati va xalqaro energetika xavfsizligidagi roli yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** global energetika bozori, O'zbekiston neft-gaz sanoati, energetik xavfsizlik, geoiqtisodiy jarayonlar, energetik hub, tabiiy gaz zaxiralari, energetik tranzit yo'laklari, eksport diversifikatsiyasi, mintaqaviy energetik integratsiya, xalqaro energetik hamkorlik.

**Аннотация.** В данной статье на фоне геоэкономических изменений, происходящих в глобальной энергетической системе, проводится углублённый научный анализ нефтегазовой отрасли Узбекистана и её стратегической роли на международных рынках. В исследовании на основе международных статистических данных оцениваются запасы природного газа Узбекистана, динамика добычи, география экспорта и транзитные возможности, а также научно обосновываются энергетико-геостратегические преимущества страны. В частности, раскрываются экономическая эффективность, геополитическая значимость и роль в обеспечении международной энергетической безопасности энергетических коридоров, проходящих по территории Узбекистана: Восточного (китайское направление), Западного (через Каспий к рынкам Европы) и Южного (выход на рынки Пакистана и Индии через Афганистан).

**Ключевые слова:** глобальный энергетический рынок, нефтегазовая отрасль Узбекистана, энергетическая безопасность, геоэкономические процессы, энергетический хаб, запасы природного газа, энергетические транзитные коридоры, диверсификация экспорта, региональная энергетическая интеграция, международное энергетическое сотрудничество.

**Abstract.** *This article provides an in-depth scientific analysis of Uzbekistan's oil and gas industry and its strategic role in international markets against the backdrop of geo-economic changes occurring in the global energy system. Based on international statistical data, the study assesses Uzbekistan's natural gas reserves, production dynamics, export geography, and transit potential, and substantiates the country's energy and geostrategic advantages on a scientific basis. In particular, the economic efficiency, geopolitical significance, and role in ensuring international energy security of the energy corridors passing through Uzbekistan — Eastern (China-bound route), Western (via the Caspian Sea to European markets), and Southern (access to the Pakistan–India markets through Afghanistan) — are examined.*

**Keywords:** *global energy market, Uzbekistan's oil and gas industry, energy security, geo-economic processes, energy hub, natural gas reserves, energy transit corridors, export diversification, regional energy integration, international energy cooperation.*

### **Kirish**

Global energetika bozori so'nggi o'n yilliklarda tubdan o'zgarib, geoiqtisodiy manfaatlari va energetik xavfsizlik yirik davlatlar tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishiga aylandi. Uglevodorod resurslari bo'yicha yetakchilar o'rtasidagi raqobat, energiya tranzit yo'laklarining diversifikatsiyasi, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonlari hamda xalqaro energiya talabining o'zgarishi energetika tizimini murakkab, ko'p omilli makonga aylantirdi. Ana shunday global sharoitda Markaziy Osiyo mintaqasi, ayniqsa, O'zbekiston energetika balansida strategik ahamiyat kasb etib, jahon bozoridagi geoiqtisodiy muvozanatda muhim o'rin egallay boshladi.

O'zbekiston neft-gaz sanoati iqtisodiyotning asosiy tayanchi bo'lib, mamlakat YalMining sezilarli ulushini tashkil etadi. Mamlakatning tabiiy gaz bo'yicha tasdiqlangan zaxiralari jahonning yetakchi davlatlari qatoriga kiradi, quvur tizimining geografik qulay joylashuvi esa O'zbekistonni nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro energiya tranzit markaziga aylanish imkonini bermoqda. Bundan tashqari, global energetika bozorida geosiyosiy vaziyatning o'zgarishi — Rossiya–Yevropa energiya inqirozi, Xitoyning energetik talabi o'sishi, LNG bozorining kengayishi — O'zbekiston uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga keltirdi.

Shu bois, mazkur tadqiqotning dolzarbligi O'zbekistonning neft-gaz sanoati global energetika tizimidagi strategik rolini chuqur tahlil qilish, uning xalqaro bozorlar bilan integratsiya darajasini baholash va energetik geoiqtisodiyot nuqtai nazaridan rivojlanish istiqbollarini aniqlash zaruriyati bilan izohlanadi.

### **Adabiyotlar sharhi**

R.Auiti nazariyasini amerikalik olim J.Saks «tabiiy resurslarning mamlakat iqtisodiyoti va tinchligi uchun foydasiga qaraganda, resurslar uchun ayovsiz siyosiy o'yinlar olib boruvchi attraktor funksiyasini bajaradi»-degan g'oyani va qarashlarini XIX asrning 80-yillarida Birlashgan Arab Amirli, Yaponiya, Xitoy singari mamlakatlarni misol keltirgan holda asoslagan. Mamlakatning tabiiy zaxiralarga boyligi har doim ham mamlakatning ustunligi bo'la olmaydi.

### **Tahlil va natijalar**

O'zbekiston Markaziy Osiyoda yirik neft-gaz va neft mahsulotlari ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi. Mamlakatning tog'-kon sanoati, karer qazib olish, neft va gaz qazib olish sohaqshni yanada rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib borayotganiga

va hukumatning energiya majmuasida qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini 8 foizdan 25 foizga oshirish bo'yicha ulkan maqsadlariga qaramay, bu soha O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlari hisoblanadi. Biroq, ta'minot jarayoni endi mamlakatdagi neft mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirmaydi. O'zbekiston o'zini-o'zi ta'minlash maqsadida, neft-gaz resurslarini import qilmasligi sababli uning iste'mol darajasi sezilarli darajada pasayib bormoqda. Shu sabab, yangi yirik neft konlari kashf qilinmasa va neft qazib olish sezilarli darajada oshmasa, mamlakat iste'molchilari ichki bozorda neft mahsulotlari tanqisligini boshdan kechirishda davom etadi. Shu o'rinda neft zahirasi buyida davlatlar ketma-ketligini ko'rib chiqib tahlil qilsak (1-jadval).

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki O'zbekiston Markaziy Osiyoda neft zaxirasi buyicha 3-o'rinda turib, dunyo neft zaxirasidagi ulushi 0,036% ga teng. O'zbekistonda birinchi neft qazib olish 1885-yilda Farg'ona vodiysida boshlangan. 1900-yilda keng ko'lamli neft qidiruv ishlari boshlandi va 1904-yildan boshlab portlatilgan quduqlardan neft qazib olindi [2]. Bu mintaqadagi eng qadimgi neft qazib olish faoliyatidir. Yigirmanchi asr davomida O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida neftning asosiy ishlab chiqaruvchilari va neft mahsulotlari yetkazib beruvchilaridan biri bo'lib qoldi. Hozirda O'zbekistonning an'anaviy neft zaxiralari 600 million barrelga baholanmoqda[6]. Tasdiqlangan neft konlarining 60 foizdan ko'prog'i Buxoro-Kiva mintaqasida (janubiy va janubi-g'arbiy qismlari) joylashgan. Biroq, so'nggi o'n yil ichida mahalliy neft qazib olish sezilarli darajada kamaydi.

1-jadval

## Neft zahirasi buyicha davlatlar ketma-ketligi [7]

| T/R   | Mamlakatlar nomi              | Neft zaxiralari — OPEK hisoboti | Dunyodagi ulushi, % |
|-------|-------------------------------|---------------------------------|---------------------|
| 1     | Venesuela                     | 303,22 milliard barrel          | 18,17               |
| 2     | Saudiya Arabistoni            | 267,19 milliard barrel          | 16,15               |
| 3     | Eron                          | 208,60 milliard barrel          | 10,35               |
| 4     | Kanada                        | 163,63 milliard barrel          | 9,54                |
| 5     | Iroq                          | 145,02 milliard barrel          | 8,57                |
| 6     | Birlashgan Arab Amirliklari   | 113,00 milliard barrel          | 6,15                |
| 7     | Quvayt                        | 101,50 milliard barrel          | 5,93                |
| 8     | Rossiya 80,00 milliard barrel | 80,00 milliard barrel           | 4,85                |
| 9     | Qo'shma Shtatlar              | 55,25 milliard barrel           | 2,93                |
| 10    | Liviya                        | 48,36 milliard barrel           | 2,25                |
| 11    | Nigeriya                      | 36,97 milliard barrel           | 2,13                |
| 12    | Qozog'iston                   | 30,00 milliard barrel           | 1,82                |
| 13    | Xitoy                         | 27,00 milliard barrel           | 1,53                |
| 14    | Qatar                         | 25,24 milliard barrel           | 1,52                |
| 15    | Braziliya                     | 13,24 milliard barrel           | 0,98                |
| ..... |                               |                                 |                     |
| 46    | O'zbekiston                   | 5,9 milliard barrel             | 0,036               |

1-jadval ma'lumotlari global neft zaxiralari bo'yicha davlatlar o'rtasidagi keskin tafovutlarni yaqqol namoyon etadi. Eng yirik zaxiralarga ega davlatlar tarkibida Venesuela (303,22 mlrd barrel), Saudiya Arabistoni (267,19 mlrd barrel) va Eron (208,60 mlrd barrel) yetakchilik qilmoqda. Ushbu uch davlatning umumiy ulushi jahon neft zahirasi qariyb 45 foizini tashkil etadi, bu esa global energetika siyosati va neft bozoridagi narx shakllanish jarayonlarida ularning geoiqtisodiy ta'sirini nihoyatda kuchli ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, Kanada, Iroq va BAA kabi davlatlarning 100 mlrd barrel atrofida zaxiralari ularni ham strategik energetik o'yinchilarga aylantirgan. Yevropa Ittifoqining yirik energiya iste'molchiligi bilan bir qatorda, Qo'shma Shtatlar va Rossiyaning nisbatan katta neft zaxiralari (mos ravishda 55,25 va 80 mlrd barrel) ular uchun energetika xavfsizligini ta'minlashda muhim omil bo'lib qolmoqda.

Chet el mutaxassislari fikricha, O'zbekiston neftni qayta ishlash zavodlari o'z ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalana olishmayapti. O'zbekiston, shubhasiz, eng yirik neft mahsulotlari ishlab chiqaruvchisi va mamlakatda ishlab chiqarilgan neftning katta qismini qayta ishlash quvvatiga ega. Mamlakat neftni qayta ishlash bo'yicha ko'p asrlik tajribaga ega. Ilk neftni qayta ishlash zavodi 1906-yilda Farg'onada qurilgan. Zavodning yillik qayta ishlash quvvati kengaytirildi va 1940-yilda 176 ming tonnaga yetdi [2]. O'zbekiston nafaqat ichki va O'rta Osiyo iste'moli uchun neft mahsulotlarini yetkazib berdi, balki Xitoy va Afg'onistonga ham eksport qiladi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi markaziy geolokatsiyasi mamlakatni uch asosiy energetik yo'lak — Sharq, G'arb va Janub yo'nalishlari kesishgan hududga aylantiradi. Bu holat nafaqat milliy energiya xavfsizligi, balki xalqaro bozorlarga chiqish, tranzit daromadlari va geoiqtisodiy ta'sir nuqtai nazaridan ham strategik ustunlik yaratadi. O'zbekiston tabiiy gaz zaxiralari bo'yicha xalqaro reytingda o'rta-yuqori guruhda turadi: turli manbalarga ko'ra, gaz zaxiralari 1,5–1,8 trln m<sup>3</sup> atrofida baholanib, mamlakatni dunyoda taxminan 17–22-o'rinlarga qo'yadi.

Bu zaxiralar yiliga o'rtacha 54–66 mlrd m<sup>3</sup> atrofida gaz qazib olish hajmlari bilan birgalikda O'zbekistonni mintaqaning muhim energetik o'yinchisiga aylantirgan.

Sharq yo'lagi – Xitoyga eksportning asosiy arteriyasi

Sharq yo'lagi bugungi kunda O'zbekiston uchun eng faol ishlayotgan energetik yo'nalishdir. "Markaziy Osiyo – Xitoy" gaz quvuri tizimi (A, B va C liniyalari) Turkmenistondan boshlanib, Uzbekistan va Qozog'iston hududi orqali Xitoyning Shinjon (Xorgos) nuqtasiga ulanadi. Quvurning umumiy uzunligi taxminan 1 833 km bo'lib, shundan 530 km O'zbekiston hududidan o'tadi.

Uch parallel liniyaning (A, B, C) umumiy yillik quvvati 55 mlrd m<sup>3</sup> gazni tashkil etadi va bu ko'rsatkich 2014–2015-yillarda to'liq yuklanish darajasiga yaqinlashgan.

Kelajakda qurilishi rejalashtirilgan D liniyasi ishga tushirilsa, umumiy quvvat 85 mlrd m<sup>3</sup>/yil gacha yetishi mumkin, bu esa Markaziy Osiyodan Xitoyga gaz oqimini sezilarli kengaytiradi.

O'zbekiston ushbu tizimda ham gaz yetkazib beruvchi, ham tranzit hudud sifatida ishtirok etib, tranzit to'lovlari, uzoq muddatli kontraktlar va energetik hamkorlik hisobiga geoiqtisodiy pozitsiyasini mustahkamlamoqda.

G'arb yo'lagi – Kaspiy dengizi orqali Yevropa bozoriga chiqish potentsiali

G'arb yo'lagi hozircha to'liq shakllanib bo'lmagan bo'lsa-da, strategik istiqbol nuqtai nazaridan juda muhim. Yevropa Ittifoqi 2022-yildan keyin Rossiya gaziga qaramlikni keskin kamaytirish siyosatini yuritib, 2027-yilgacha Rossiya gazini to'liq rad etish bo'yicha qaror qabul qildi.

Shu munosabat bilan Kaspiy dengizi havzasi va Markaziy Osiyo davlatlari (shu jumladan, O'zbekiston) Yevropa energiya xavfsizligi uchun muhim mintaq sifatida ko'rilmogda.

Yevropa bozorining yuqori to'lov qobiliyati va 2027-yilgacha Rossiya gazidan voz kechish rejasi inobatga olinsa, G'arb yo'lagi O'zbekiston uchun uzoq muddatli strategik maqsad sifatida alohida ahamiyatga ega.

Janub yo'lagi – Afg'oniston orqali Janubiy Osiyo bozorlariga chiqish

Janub yo'lagi Afg'oniston hududi orqali Pokiston va Hindiston bozorlariga chiqishni nazarda tutadi. Bu yo'nalish bilan bog'liq eng yirik loyiha — TAPI (Turkmenistan–Afghanistan–Pakistan–India) gaz quvuri bo'lib, uning umumiy uzunligi taxminan 1 814 km, yillik loyihaviy quvvati esa 33 mlrd m<sup>3</sup> gazni tashkil etadi.

Manbalarga ko'ra, bu hajmdan taxminan 5 mlrd m<sup>3</sup> Afg'oniston, 14 mlrd m<sup>3</sup> Pokiston va 14 mlrd m<sup>3</sup> Hindistonga taqsimlanishi rejalashtirilgan.

TAPI quvurining Turkmaniston tomoni 2024-yilda deyarli yakunlangan bo'lib, Afg'oniston hududidagi ishlar bosqichma-bosqich davom ettirilmogda.

O'zbekiston TAPI yo'nalishida bevosita trassa bo'yicha emas, balki mintaqaviy gaz tarmoqlari integratsiyasi orqali ishtirok etish potentsialiga ega. Bu — ichki gaz tarmog'ini kuchaytirish, Turkmaniston va boshqa qo'shnilar bilan "swap" va "back-to-back" bitimlari tuzish, hamda Janubiy Osiyo bozorlariga yo'naltiriladigan hajmlarga ulanish mexanizmlarini ishlab chiqish orqali amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekistonning neft sohasini rivojlantirish foyda olish maqsadida emas, balki energiya xavfsizligini ta'minlashdir. "Mahalliy iste'molchilar O'zbekistonda neft mahsulotlarining sezilarli tanqisligini boshdan kechirmogda. Shunday qilib, neft sektorini rivojlantirish mamlakatda mavjud va yuzaga kelayotgan energiya xavfsizligi muammolarini hal qilish uchun innovatsion va islohotlarga asoslangan energetika siyosatini talab qiladi".

O'zbekistonda sohaga tegishli mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalana olinsa, bu har yili uch milliard kub metr tabiiy gazni tejash va 2026-yilga borib atmosferaga zararli gazlar chiqarishni 20 foizga kamaytirish imkonini beradi [4]. Mamlakatning uglevodorod zaxiralari katta: mahalliy sanoat vakillarining ma'lumotlariga ko'ra, jami birlamchi energiya zahiralari neft ekvivalenti 5,5 milliard tonnani tashkil etadi, shu jumladan tabiiy gaz 1,5-1,6 milliard kub, neft 245 million tonna va ko'mir 3,3 milliard tonna. Ushbu tarmoqlar yalpi ichki mahsulotning 5,9 foizini tashkil etadi, neft-gaz tarmog'i davlat byudjeti daromadlarining 4 foizini tashkil etadi, eksport tushumlarining 6,3 foizini tashkil etdi va band aholining qariyb 1 foizini shu sohada ish bilan ta'minladi. O'zbekiston Markaziy Osiyoda tabiiy gaz zaxirasi buyicha uchinchi, qazib olish bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi (2-jadval).

## 2-jadval

## Dunyoning gaz zaxirasi buyicha yetakchi davlatlari [5]

| T/r | Mamlakatlar                 | Gaz zaxirasi, mln kub | Dunyodagi ulushi |
|-----|-----------------------------|-----------------------|------------------|
| 1   | Rossiya                     | 1,688,228,000         | 24.39%           |
| 2   | Eron                        | 1,183,019,000         | 17.09%           |
| 3   | Qatar                       | 858,098,000           | 12.40%           |
| 4   | Amerika Qo'shma Shtatlari   | 322,234,000           | 4.65%            |
| 5   | Saudiya Arabistoni          | 303,284,000           | 4.38%            |
| 6   | Turkmaniston                | 265,000,000           | 3.83%            |
| 7   | Birlashgan Arab Amirliklari | 215,098,000           | 3.11%            |
| 8   | Venesuela                   | 201,343,000           | 2.91%            |
| 9   | Nigeriya                    | 186,610,000           | 2.70%            |
| 10  | Xitoy                       | 184,419,000           | 2.66%            |
| 11  | Jazoir                      | 159,054,000           | 2.30%            |
| 12  | Iroq                        | 111,522,000           | 1.61%            |
| 13  | Mozambik                    | 100,000,000           | 1.44%            |
| 14  | Indoneziya                  | 98,000,000            | 1.42%            |
| 15  | Qozog'iston                 | 85,000,000            | 1.23%            |
| 16  | Misr                        | 77,200,000            | 1.12%            |
| 17  | Kanada                      | 77,065,000            | 1.11%            |
| 18  | Avstraliya                  | 70,230,000            | 1.01%            |
| 19  | Norvegiya                   | 65,543,000            | 0.95%            |
| 20  | O'zbekiston                 | 65,000,000            | 0.94%            |

Mamlakatda 2022-yilda 51,7 milliard kub metr tabiiy gaz qazib olindi va 2030-yilga borib uni 66,1 milliard kub metrga yetkazish rejasi qo'yilmoqda. 2022-yil dekabr oyida mamlakatdagi tabiiy gazning 63 foizini ishlab chiqaradigan "O'zbekneftgaz" AJ 10 yilga mo'ljallangan qazib olish hajmini 10 ming kvadrat metrga oshirishni kutayotganini e'lon qildi. Kompaniya ushbu davrda 365 milliard kub metr tabiiy gaz va 16 million tonna suyuq uglevodorodlar zaxirasiga ega 40 dan ortiq yangi uglevodorod konlarini ochishni rejalashtirmoqda.

Katta zaxiralarga qaramay, O'zbekiston 2022-yil dekabr—2023-yil yanvar oylarida anomal darajada sovuq haroratda energiya inqiroziga duch keldi va poytaxtga elektr ta'minotida uzilishlar kuzatildi. 2022-yilning 12-dekabr kuni O'zbekiston Turkmaniston bilan tanqislikni qoplash uchun 1,5 milliard kub metr turkman tabiiy gazini O'zbekistonga yetkazib berish bo'yicha 3 oylik shartnoma imzoladi. 2023-yilning 12-20-yanvar kunlari o'ta sovuq havo bilan bog'liq texnik muammolar Turkmanistondan O'zbekistonga gaz yetkazib berishda to'xtab qoldi. 2023-yil 16-iyun kuni O'zbekiston Rossiyaning "Gazprom" kompaniyasi bilan har yili 2,8 milliard kub metr tabiiy gaz sotib olish bo'yicha 2 yillik shartnoma imzoladi.

2019-yilda hukumat "O'zbekneftgaz" AJ davlat tabiiy gaz gigantini shaffoflikni oshirish va bozor narxlarini standartlari asosida ishlash maqsadida ishlab chiqarish, uzatish va ichki sotishga yo'naltirilgan uchta mustaqil kompaniyaga birlashtirdi.

### Xulosa.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston neft-gaz sanoati global energetika tizimida strategik o'rin tutadi. Mamlakatning tabiiy resurs salohiyati, tranzit geografiyasi, energetik infratuzilmasi va sanoatni modernizatsiya qilish jarayoni uni mintaqadagi asosiy energetik markazlardan biriga aylantirmoqda. Xalqaro energetika bozoridagi o'zgarishlar O'zbekiston uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratmoqda va davlatning global energetik integratsiyasini chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston yoqilg'i-energetika sanoatidagi so'nggi 13 yillik tendensiyalarni ko'rsatib, milliy energetik xavfsizlikka oid strategik xulosalar chiqarish imkonini beradi. Gaz va neft qazib chiqarish hajmlarining pasayishi mamlakatni yangi texnologiyalar, diversifikatsiya va qayta tiklanuvchi manbalarga e'tibor qaratishga undaydi. Shu bilan birga, elektr energiyasi va ko'mir ishlab chiqarishning o'sishi iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil sifatida xizmat qilmoqda.

### REFERENCES

1. Joshua Yindenaba Abor (Editor), Amin Karimu. The Economics of the Oil and Gas Industry: Emerging Markets and Developing Economies (Routledge Studies in the Economics of Business and Industry). Publisher : Routledge; 1st edition (March 6, 2023), 338 p
2. Salomova S. Ways to use intellectual platforms in the Republic of Uzbekistan // E3S Web of Conferences. 2023. Vol. 384. Art. no. 01060. 6 p. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338401060>
3. Salomova S. Increasing the efficiency of oil and gas industry enterprises in Uzbekistan // AIP Conference Proceedings. 2025. Vol. 3331. Art. no. 040075. <https://doi.org/10.1063/5.0305986>
4. Salomova S., Saidkarimova M., Karieva L., Ibragimova K., Saidova G., Khikmatov R. Improving the efficiency of energy enterprises // AIP Conference Proceedings. 2025. Vol. 3331. Art. no. 040076. <https://doi.org/10.1063/5.0305987>
5. <https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/uzbekistan-oil-and-gas-market> <https://www.worldometers.info/gas/>
6. British Petroleum Company, "BP statistic Review of World Energy June 2015, <http://www.bp.com/content/dam/bp/pdf/Energy-economics/statistical-review...>
7. [https://www.worldatlas.com/industries/the-world-s-largest-oil-reserves-by-country.html#h\\_34118067970561718102956581](https://www.worldatlas.com/industries/the-world-s-largest-oil-reserves-by-country.html#h_34118067970561718102956581)

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

